



MAHALLIY JURNALISTIKA RIVOJLANISHIDA RADIO VA PODKASTLARNING ROLI

Farxunda Mandonova

*Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
hamda Farg‘ona teleradiokanali muxbiri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy jurnalistikaning taraqqiyotida radio va podkastlarning tutgan o‘rni yoritiladi. Zamonaviy raqamli axborot vositalari ichida qulay, tezkor va tinglovchi bilan bevosita muloqotga kirishish imkoniyati mavjud bo‘lgan audio jurnalistika janrlarining afzalliklari va muammolari tahlil qilinadi. Ayniqsa, audio kontentning auditoriyaga ta’sirchan yetib borish qobiliyati, axborot tarqatishdagi mobil qulayliklari va jurnalistik ifoda vositasi sifatidagi imkoniyatlari alohida o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekistondagi ayrim hududiy radio va podkast loyihalari misolida tahliliy mulohazalar bildiriladi hamda ularning hududiy axborot maydoniga qo‘shgan hissasi baholanadi.

Kalit so‘zlar: jurnalistika, podcast, radio, mahalliy, axborot

Аннотация: В статье освещается роль радио и подкастов в развитии местной журналистики. Рассматриваются преимущества и проблемы аудиожурналистики как одного из удобных, оперативных и обеспечивающих прямое взаимодействие с аудиторией жанров современных цифровых СМИ. Особое внимание уделяется способности аудиоконтента эффективно воздействовать на слушателей, его мобильности в распространении информации и потенциалу как выразительного средства журналистики. Также представлены аналитические размышления на примере отдельных региональных радиостанций и подкаст-проектов в Узбекистане, а также их вклад в формирование регионального информационного пространства.

Ключевые слова: журналистика, подкаст, радио, местный, информация

Annotation: This article highlights the role of radio and podcasts in the development of local journalism. It examines the advantages and challenges of audio journalism as a format within modern digital media that is convenient, fast, and allows for direct engagement with listeners. Special attention is given to the impact potential of audio content, its mobility in disseminating information, and its capabilities as a journalistic tool of expression. The article also presents analytical reflections based on several regional radio and podcast projects in Uzbekistan, evaluating their contribution to the local information landscape.

Keywords: journalism, podcast, radio, local, information

KIRISH

Bugungi kunda jurnalistika doimiy o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va auditoriyaning yangilanayotgan ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bir sohaga aylanib bormoqda.



Ayniqsa, mahalliy jurnalistikada xalqqa yaqin, sodda va ta’sirchan vosita sifatida radio va uning zamonaviy ko’rinishi — podkastlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

1. Mahalliy jurnalistikaning ahamiyati

Mahalliy OAV — bu hudud aholisi hayotiga bevosita taalluqli, ularning muammolari, yutuqlari, urf-odatlar va madaniyatini aks ettiruvchi axborot manbai. Bunday axborot vositalarining asosiy vazifasi – xalq bilan hukumat o’rtasida axborot ko’prigi bo’lishdir.

2. Radioga xos afzalliklar

Radio axborotni yetkazishda quyidagi afzalliklarga ega:

keng auditoriyani qamrab oladi;

savod darajasidan qat’i nazar har kim tinglashi mumkin;

real vaqt rejimida efirga uzatiladi;

elektromagnit to’lqinlar orqali chekka hududlargacha yetib boradi;

xarajati nisbatan kam, texnik jihatdan qulay.

3. Podkastlar – jurnalistikaning yangi bosqichi

Podkastlar — bu tinglovchiga istalgan vaqtda, istalgan joyda tinglash imkonini beruvchi audio mahsulotlar. Bugungi kunda ko’plab yosh jurnalistlar va kontent yaratuvchilar podkast orqali jamiyatdagi dolzarb mavzularni ko’tarib chiqmoqda.

Podkastlarning asosiy xususiyatlari:

mavzuga chuqur kirish imkoniyati;

shaxsiy yondashuv va mustaqillik;

auditoriyani shakllantirish va muloqot qilish qulayligi;

ijtimoiy tarmoqlar bilan uyg’unlikda ishlashi.

4. O’zbekiston tajribasida radio va podkastlar

O’zbekistonda ko’plab viloyatlarda mahalliy radiolar faoliyat yuritadi: Andijon, Namangan, Farg’ona, Buxoro, Qashqadaryo radiolari. Bu radiolar:

qishloq xo’jaligi,

mahalliy tadbirkorlik,

yoshlar muammolari,

urf-odat va xalq og’zaki ijodi haqida maxsus eshittirishlar tayyorlaydi.

Gazeta va jurnallar deyarli to’rt asrdan buyon insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. XVII-XIX asrlar davomida esa jurnalistika tasnifi faqat gazeta va jurnallardan tashkil topdi. Lekin, jurnalistikaning jamiyat hayotidagi ahamiyatishu qadar katta-ki, insoniyat faqat gazeta va jumal bilan kifoyalanib qolmadi. XIX asming oxiri va XX asming boshlariga kelib, ommaviy axborot vositalari tasnifida katta bir yangilik, beqiyos bir o’zgarish yuz berdi, unga jurnalistikaning butunlay yangi bir turi - radio kirib keldi.

Radio so’zi, yunoncha bo’lib, «radius» - nur, «radio» - nur tarataman, degan ma’noni bildiradi, hamda, bu o’rinda elektromagnit tolqlari orqali ovoz tolqlarini uzoq masofa va katta hududga simsiz tarqatish usuliga, bu usulni amalga oshiruvchi asbobga aytiladi.



Radio — OAVning o‘ziga xos elektron texnikaga asoslangan turidir. Radio, tub ma’nodagi jurnalistika emas, ya’ni u so’zni bosma usul bilan ko‘paytirmaydi, balki uni maxsus asboblarda vositasida og‘zaki ko‘paytiradi, shu jihatdan u jurnalistikaning, to‘g‘rirog‘i ommaviy axborot vositalarining bir turi hisoblanadi. Radio ommaviy axborot vositalari tasnifida alohida o‘rin tutadi, gazeta va jurnal ko‘rish, bosma so‘zlarni o‘qish orqali inson ongiga yetib borsa, radio esa ovozni quloq bilan eshitish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa insonning eng asosiy sezuv a’zosi bo‘lmish quloq orqali axborot qabul qilishdek eng qadimiy va tabiiy imkoniyatidan kelib chiqadi.

Radio jurnalistikaning, ommaviy axborot vositalarining chegaralarini, imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytirdi, dunyo xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirdi, insonning olamini mas’uliyatini oshirdi. Radioning tarixiga nazar tashlasak uning ko‘pchilik ijodi ekanligini ko‘ramiz. XIX asming o‘rtalarida italyan olimi K.Markoni radio bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib bordi. Bu ishga jahondagi boshqa olimlar qatori rus ixtirochilari ham o‘z hissalarini qo‘shdilar. Birinchi bor radio rus olimi A.S.Popov tomonidan 1895-yil 7-may kuni Peterburgdagi mas’uliyat — ximiya jamiyati yig‘ilishida sinab ko‘rildi. Ammo u ishlab chiqqan elektr signallari uzoq masofaga simsiz uzata oladigan radiotelegraf asosan aloqa vositasi sifatida ixtiro qilingan edi. Mazkur simsiz telegrafni ommaviy axborot vositasi bo‘lib shakllanganicha ma’lum vaqt o‘tdi. Buning uchun esa jurnalistikaning paydo bo‘lishida asosiy ocrin tutgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy ehtiyojlar zarur bo‘ldi. Ya’ni, ayrim tabaqa va guruhlar radiodan bir joyda turib juda katta hudud va keng masofadagi kishilarga o‘z g‘oyalarini yetkazish mumkinligini tushunib yetdilar va bu muhim ehtiyoj oddiy aloqa vositasini ommaviy axborotning muhim turiga aylanishiga olib keldi. Jumladan, 1917-yilda Rossiyada hukumat tepasiga kelgan bolsheviklar radio orqali targ‘ibot va tashviqot olib borish uchun uni takomillashtirish bo‘yicha maxsus ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etishdi va 1920-yilning boshida radioeshittirishlar yuzaga keldi. Radioning ommaviy axborot vositasi sifatida ixtiro etilishida toshkentlik mutaxassislar ham ishtirok etishgan. Masalan, 1920-yil 17-noyabr kuni Toshkent radiosi mudiri markazga yuborgan maxsus radiogrammasida

Moskva radiosining ovozi Toshkentga ham yetib kelganligini ma’lum qilgan edi. 1922-yildan boshlab esa Moskvada dastlabki radio eshittirishlar boshlandi. Moskva radiosi orqali eshittirilgan maxsus «radiogazeta»larda bolshevistik targ‘ibot va tashviqot asosiy o‘rin egallagan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. TO‘LQIN QOZOQBOYEV.”JURNALISTIKA ASOSLARI” TOSHKENT 2007 “MUSIQA” nashriyoti
2. TO‘LQIN QOZOQBOYEV VA MUXTOR XUDOYQULOV TOSHKENT 2018 “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti